YARALI KOLITNI TASHXISLASH VA DAVOLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI

Rustamov A.E
Yakubov D.R
Arziyev D.O'
Toshkent, O'zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.23015085

Dolzarbligi. Yarali kolit (YK) yo'g'on ichak shilliq qavatining immun-yallig'lanishli zararlanishi bilan kechuvchi surunkali kasallik bo'lib, uning klinik kechishi va og'irlik darajasi bemorlarda sezilarli farq qiladi. Kasallikni erta tashxislash, yallig'lanish faolligini to'g'ri baholash va individual davolash taktikasini tanlash asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy biologik terapiya davolash natijalarini yaxshilagan bo'lsada, remissiyani uzoq muddat saqlash va davolashga rezistent holatlar muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Yarali kolitning klinik kechishi, diagnostika imkoniyatlari va zamonaviy davolash usullarini tahlil qilish hamda og'ir va asoratlangan shakllarda jarrohlik davolashga ko'rsatmalarni baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda yarali kolit bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar hamda klinik tavsiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, Toshkent shahridagi Milliy tibbiyot markazi koloproktologiya bo'limida davolangan 49 nafar bemorning klinik kechishi va davolash natijalari o'rganildi. Klinik, laborator, endoskopik va instrumental tekshiruv usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqotda yarali kolitning asosiy klinik belgilari sifatida qonli ich ketishi, qorin og'rig'i, tenesmlar, umumiy holsizlik, isitma, tana vazni va ishtahaning pasayishi kuzatildi. Kasallikning og'ir shakllarida tez-tez qonli ich ketishi, kamqonlik, isitma va metabolik buzilishlar qayd etildi. Ayrim bemorlarda artrit, uveit, tugunli eritema va boshqa ichakdan tashqari ko'rinishlar aniqlandi.

Tashxis klinik, laborator va instrumental tekshiruvlar asosida qo'yildi. Kolonoskopiya biopsiya bilan birgalikda asosiy diagnostik usul sifatida qo'llanildi. Endoskopik tekshiruvda shilliq qavat giperemiyasi, kontakt qonashi, eroziya va yarali o'zgarishlar aniqlandi. Yallig'lanish faolligini baholashda C-reaktiv oqsil va najas kalprotektini kabi biomarkerlarning ahamiyati yuqori bo'ldi. KT va MRT asosan asoratlarni aniqlash va differensial diagnostika uchun qo'llanildi.

Davolashning asosiy maqsadi klinik va endoskopik remissiyaga erishish hamda uni uzoq muddat saqlashdan iborat. Yengil va o'rtacha og'irlikdagi shakllarda 5-aminosalisil kislota preparatlari, kasallik zo'rayishida glyukokortikosteroidlar va zarur hollarda immunomodulyatorlar qo'llanildi. Biologik terapiyada anti-TNF preparatlari, vedolizumab va ustekinumab kabi dori vositalaridan foydalanish zamonaviy davolashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Konservativ davolash samarasiz bo'lgan og'ir va asoratlangan holatlarda jarrohlik davolashga murojaat qilindi. Tadqiqot guruhida 11 nafar bemorga jarrohlik amaliyoti bajarildi. Og'ir holatlarda bosqichma-bosqich jarrohlik taktikasi, jumladan, kolektomiya va ileostoma shakllantirish, keyinchalik Pouch-anal anastomoz yaratish hamda ileostomani yopish usullari qo'llanildi.

Xulosa. Yarali kolitni erta tashxislash, klinik va endoskopik faollikni kompleks baholash hamda davolash taktikasini individual tanlash kasallik oqibatlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dori vositalari, xususan biologik terapiya, remissiyaga erishish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Og'ir, asoratlangan va konservativ davolashga javob bermaydigan holatlarda jarrohlik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.